

## MEHNAT MUHOFAZASIGA PSIXOLOGIK YONDASHISHDA RANGLARNING ROLI

**Muminov Otabek Shuxratovich.**

*Birinchi Rezinotexnika Zavodi.MChJ.Yetakchi muhandis  
muminov\_kebato1990@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida dunyoda ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan turli xil turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bunday tadqiqot va zamonaviy innovatsiyalar qatoriga shaxsiy himoya vositalarini rivojlantirish, ularni har tomonlama qulay va sifatli holatga keltirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy innovatsiyalar, shaxsiy himoya vositalari, baxtsiz hodisalar, xulq-atvor, rang, asabiylashish.*

**Abstract:** *In order to prevent accidents, various researches have been carried out by many research scientists in the world and are still ongoing. Among such research and modern innovations, we can cite as an example the ongoing research on the development of personal protective equipment, making it comfortable and high-quality in all respects.*

**Key words:** *modern innovations, personal protective equipment, accidents, behavior, color, nervousness*

**Аннотация:** *В целях предотвращения несчастных случаев многими учеными мира были проведены различные исследования, которые продолжаются до сих пор. Среди подобных исследований и современных инноваций можно привести в качестве примера продолжающиеся исследования по разработке средств индивидуальной защиты, делающих их удобными и качественными во всех отношениях.*

**Ключевые слова:** *современные инновации, средства индивидуальной защиты, несчастные случаи, поведение, цвет кожи, нервозность.*

### **KIRISH.**

Baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida dunyoda ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan turli xil turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bunday tadqiqot va zamonaviy innovatsiyalar qatoriga shaxsiy himoya vositalarini rivojlantirish, ularni har tomonlama qulay va sifatli holatga keltirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Asosan ishlab chiqarish korxonalarida xizmat qilayotgan xodimlarni, baxtsiz hodisalarni oldini olishga psixologik tarbiyalash va inson ongiga buni doimiy singdirib turish, xodimlar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni kamayishiga xizmat qiladi. Insonlarning ko'pchiligi baxtsiz xodisa yuzaga kelgan vaqtda shok (va yoki shoshib qolishi) tufayli jabrlanuvchiga yordam berish vaqtini kechiktirishi, qanday harakatlanishni bilmasligi tufayli shoshib qolishi natijasida ham baxtsiz hodisalar ayanchli yakunlanishi kuzatiladi. Ayrim holatlarda bilim darajasi yetarli shaxslar ham ish vaqtida e'xtiyotsizlik sababli nohush, baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaradi.

### **MUHOKAMA.**

Inson psixologik holati doimiy ravishda bir xilda bo'lmaydi. Qandaydir muammolar

va charchash insonda stress, asabiylik, hayolchanlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi va bu ayni vaqtda inson psixologik holatini namoyon qiladi. Kundalik hayotda har bir insonning zaruriy muhim kunlik belgilagan rejalari bo'ladi. Inson bu rejalarni bajarimasligi ortiqcha ish va muammolarni keltirib chiqarganligi uchun birinchi darajaga ko'targan holda kunlik rejalari qatoriga belgilab ko'yadi. Ammo qandaydir rejalashtirilmagan ishlar hisobiga belgilagan rejalarning esdan chiqishi va bajarilmay qolishi ko'p kuzatiladi va ortiqcha muammo va ishlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Ayrim insonlar shu kabi muammolarni kelib chiqishini oldini olish maqsadida o'zlari uchun yon daftar, kundalik va xabar berib turuvchi yozma varaqalardan foydalanadi. Bu usuldan foydalanish qo'shtirnoq ichidagi insonlar uchun qolgan insonlarga qaraganda ortiqcha muammolar bilan vaqt yo'qotmaslik va siqilishlar hisobiga asabiylashish holatlarini keltirib chiqarmaslik uchun xizmat qiladi.

Shaxsiy himoya vositalarini rivojlantirishni yanada takomillashtirish maqsadida inson va SHHV o'rtasida psixologik tomonlama yondashib, nohush va baxtsiz hodisalarni sonini kamaytirish bo'yicha innovatsiyani ishlab chiqamiz va bunda asosiy urg'uni xodimning doimiy foydalanishidagi shaxsiy himoya vositalariga psixologik ta'sir etuvchi yozuvlarni biriktirish orqali yoritib berishga qaratamiz.

Xodimlarning ish salohiyati ularning bilim darajalarining holati asosida baholanadi. Ammo hamma ishchi hodim ham bir xil bilim va ko'nikmaga ega emas. Bu ish jarayoni paytida ishni to'g'ri, to'liq va xavfsiz bajarilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Nazariy va amaliy o'rganishlar natijasida mehnat talablarini va texnologik jarayonlar ketma-ketligini tushungan xodim bilan noxush va baxtsiz xodisalarning yuzaga kelish xavfi deyarli 100/1 ni tashkil etadi. Ammo olingan bilimlarni qabul qilish doirasi sust va chegaralangan xodimlarda bu ko'rsatkich 100/70 ni tashkil etadi. Bu baholash taqribiy bo'lib xodim mehnat qilayotgan ish va sohaning xavflilik darjasidan kelib chiqqan holda o'zgarishi mumkin. Qonun xujjalari va shu asosda tarmoq ishlab chiqarish korxonalarining ichki xujjat va yo'riqnomalari ishlab chiqilgani bilan bularning mazmuni ishchi qatlamga yetib bormasa va yoki xodim uni anglamasa xujjatlar o'z kuchini yo'qotadi. Ishlab chiqarish korxonalarida xodimlarga davriy ravishda mehnat muhofazasi bo'yicha qonun-qoidalarning yetkazilmasligi biz yuqorida takidlab o'tgan qabul qilish doirasi va ko'nikmasi yetarli darajada shakllangan shaxslarda ham nohush va baxtsiz xodisalarga sabab bo'lishi e'htimolini yuzaga keltiradi. Aksincha shaxslarda esa bu holat yanada e'htimollik darajasini oshiradi.

### **NATIJA**

Shaxsiy himoya vositasiga belgilangan talab bo'yicha xodimda xavfsizlikni ta'minlashga undovchi, biriktirilgan yozuvlarni qo'llashda, yana bir jihatga- insonga ruhiyatiga ta'siri mavjud ranglardan foydalanish ham ushbu belgilangan innovasion vazifani samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ranglarning shaxs ruhiyatiga ta'siri jihatidan SHHVsinig ayni vaqtdagi rangi va uning biz biriktirmoqchi bo'lgan xavfni oldini olishga undovchi belgi (yozuv)ning rangi bilan insonga nisbatan ta'sir kuchi jihatdan mutanosibligini ta'minlash samaradorligini inobatga olish kerak



Rang o‘zi nima? U qanday paydo bo‘ladi? Fan tili bilan aytganda, rang — chiqayotgan yoki qaytgan nurlanishning spektral tarkibiga muvofiq yorug‘likning muayyan sezgi hosil qilish hossasi.

Insonning ko‘zi doimiy ravishda nur va turli xildagi ranglarga intilib, talpinib yashaydi. Xuddi kundalik hayotimizda qora bulutlardan so‘ng chiqqan quyosh nurini ko‘rgan va kayfiyati ko‘tarilgan inson kabidir. Tirik organizm bor ekan, ranglar ta’sir ko‘rsatishi normallashtirilgan holatdir.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi qadimdan olim va rassomlar diqqatini tortib kelgan. Sulton Ali Mashhadiyning 1514 yilda yozilgan “Hattotlar va musavvirilar haqida risola” sida aytilishicha, o‘sha davr qo‘lyozma devonlari bezatishda qo‘llanadigan bezak naqshlar turli-tuman bo‘lib, har bir devon tuzuvchining sahifalarga rang va oro berishida o‘ziga xos uslubi bo‘lgan.


Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Bobur kabi jahonga mashhur allomalarimiz ranglarning turlari, inson sog‘ligiga ta’siri, ma’nolari va boshqa xususiyatlari haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Kitob al Javohir- ma’rifat al Javohir” (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o‘tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to‘g‘risida yozgan.

Ranglarni tadqiq etishga ayniqsa, yaponlar ilgari jiddiy e’tibor berib kelishgan. Shu bois dunyoda yagona bo‘lgan Rang instituti Tokio shahrida faoliyat ko‘rsatadi. Bu dargohda rang har tomonlama tadqiq etiladi, xususan, ranglarning inson qalbiga bo‘lgan ta’sirlari ham o‘rganiladi. Rang asoslari fan sifatida Yaponiya maktablari dasturiga ham kiritilgan.

Rang doirasi teng ikkiga bo‘linsa, birinchi yarmida iliq ranglar, ikkinchisida sovuq ranglar joylashadi. Bunday deyilishiga sabab, qizil, zarg‘aldoq, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho‘g‘ni eslatadi, havo rang, zangori, ko‘k ranglar muzni, suvning rangini eslatadi. Bunday farqlanish bir oz nisbiy bo‘lib, har qanday iliq rang ham o‘ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuqroq bo‘lib ko‘rinishi va aksincha, sovuq rang o‘zidan sovuqroq rang yonida iliqroq bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o‘rangan bo‘lib, u yorug‘likning ko‘p rangli ekanligini qator tajribalari orqali isbotlaydi va ekranda spektr ranglarni hosil qiladi. Olimlarning aniqlashicha, yettita asosiy spektr ranglarni doirasida rang turlari juda ko‘p bo‘lib inson ko‘zi 1000 taga yaqinini

ajratishga qodir.

Ko'zimiz kuzatilayotgan o'bektdagi ranglarga, mavjud yorqinlikka moslashadi. Ya'ni ko'z to'qimasi sezgilarga ta'sir qilib, qorachiq kengayishi va yoki torayishi mumkin. Ayni vaqtda kontrast, yonma-yon joylashgan ranglarning ta'sirchanligida bo'ladi. Ranglarning och to'qligi yonidagi qo'shni rangning to'qligiga, yorqinligi ham o'zaro aktiv yoki passivligiga bog'liq. Misol uchun qizil rang yashil rang muhitida yanada yorqin ko'rinadi. Kulrang oldida tiniq rangni tozaligi yanada oshadi. Shuningdek, bizga kontrastlarning ketma-ketlik hususiyatlari ham tanish, ularning obrazlari borliqqa mos. Ammo ularning shakli yassi ko'rinishda bo'ladi hamda ularning perspektiv qisqarish holati sezilmaydi. Rangning negativ ketma-ket obrazli ko'rinishlarida uning och-to'qligi ham qarama-qarshi tusda ko'rinadi. Ko'k va qiliz ranglar o'zining maksimal yorqinligida kishi a'zolariga alohida ta'siri katta. Qizil rang nerv tizimlarini qo'zg'atadi, nafas olish va tomir urishini tezlatadi hamda muskullarning ishlash qobiliyatini oshiradi.



Ko'k rang nevr tizimi faoliyatini susaytiradi. Og'riq sezgisini kamaytiradi. Sariq, zarg'aldoq ranglar ham qizilga yaqin hususiyatga ega. Albatta, ranglarni bunday ta'sirchanligi odamning hammasiga ham bir xilda bo'lmasligi mumkin. Bunda kishining jo'shqinligi, hissiyotlilik kabi hislatlariga ham bog'liqdir.

Ranglarning masofaviy ta'siri:

Rang farqlanishida biz sariq va qora rangni eng optimalligini bilamiz. Bu ikki rang yo'l (belgi)larida ishlatiladi. Biz quyida ko'rsatganimizdek masofaviy oraliqni ko'rishxirralashgan holatlardi moslashgan rang moslamalarini tuzmaiz.

Bugungi kunda rang psixologiyasi — empirik ilm hisoblanadi. Rangni o'rganishning bosh maqsadi ruhiyat va rangni o'zaro ta'siri, kelib chiqishi inson hayotida u yoki bu vaziyatlarda, emosional holatlarda tutgan o'rnini yoritib berishdan iboratdir.

Rang belgilarini o'rganish, unda ma'no aks ettirish ibtidoiy odamlardan qolgan yana bir ochilmagan ilm deb qaraladi. Ushbu davrda rang bu mo'jiza, noaniqlik, ya'ni u sehriga to'la degan qarashlar vujudga keldi. Rangni din va inson e'tiqodlariga ham bog'lab o'rganishadi. Oq va qora- yaxshilik va yomonlik belgilari deyilishi ham ayni shu asnoda vujudga kelgan. Chunki ibtidoiy odamlar hayotida ayni shu ranglar juda katta ahamiyat kasb etgan.

Rang barcha jonvorlarga hattoki, eng kichik organizmlarga ta'sir qiladi. Hayvon va hashoratlar ham ranglarni ajratib, ularga ma'lum bir ta'sirlar ko'rsatar ekan. Masalan, pashshada olib borilgan tajribada aniqlanishicha, ular ko'k rangni yoqtirishmas ekan. Bir xonani barcha jixozlarini, derazalarini ko'k rangga bo'yab, faqatgina bir kichkina derazani bo'yamay qoldirilibdi. Ayni paytda barcha pashshalar faqat oq bo'yalmagan derazaga

qo'nishibdi. Chivinlar esa aksincha, eng xush ko'rgan rangi ko'k ekan. Ular ko'pincha ko'k kiyimdagi insonlarga hujum qilishligi tajribada isbotlangan. Psixolog Lyusher ham ranglarni uzoq vaqt davomida o'rganib, ularning inson ruhiyatiga katta ta'siri borligini tasdiqlagan. Uning fikriga ko'ra qizil – asab tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ijodkorlikka undaydigan faol rang; yashil – ruhiyatni tinchlantiradigan rang; havorang, zangori

– ranglar ham ruhiyatni tinchlantirish bilan birgalikda tana haroratini pasaytirish, qon bosimini me'yorga keltirib, og'riqni susaytirish xususiyatlariga ega. Siyoh rang va binafsha rang – ilohiy hissiyotlar va hayolparastlikka moyillik uyg'otadi, ular asosan dindorlar yoki ertaksevar bolalarning sevimli rangi hisoblanadi. Jigar rang – asabiy xolatdagi insonlar tanlaydigan rang; qora rang

– tanqid va oq rang – soflik, mukamallik rangi.

Bexterev fikricha, to'g'ri tanlangan rang har qanday dori – darmondan ko'ra inson sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va davolashning bir usuli sifatida ham qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. V.Terner nazariyasi bo'yicha ranglarning belgilari va xarakter xususiyatlari u aks etgan obyektlarga bog'liq. Ko'z qorachig'i psixobiologik ko'nikma va malakalarga tayanadi va ranglarni barcha sezgi organlari orqali ta'sir qiladi. Terner ranglarni tashqi ko'rinishiga uni aks ettirgan obyektlarga qarab tahlil qilgan. Masalan, qonning rangi qizil shuning uchun ham biz unga hayot, tiriklik kuch timsoli sifatida yondashamiz deb ta'kidlaydi. Gete Van-Gog va V.Kandinskiylar uchun esa rang o'z-o'zidan biron xarakterga ega bo'ladi va har qanday tasavvur u aks etgan predmetdan emas, balki, rangning o'zidagina olinadi va uning fikrini inkor etadilar.

Nemis shoiri va san'atshunos olimi I.V.Gyote ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri bilan qiziqqan. U ranglar bo'yicha olib borgan izlanishlarini yirik-yirik asarlaridan ham ustun deb hisoblagan. Uning fikricha, rang biron nimada aks etishidan qat'iy nazar, insonning ruhiyatiga, kayfiyatiga hattoki, qalbidagi kechinmalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni rangdan olingan taassurot birinchi navbatda faqat uning o'zigagina tegishli bo'ladi bu u aks ettirgan jism shakli va materialiga bog'liq bo'lmaydi. Gyote "Ranglar haqida ta'limot" nomli asarida iliq ranglar kishida kayfi chog'lik, sovuq ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan. Uzoq vaqt davomida rangli shishalarga tikilsa, ular insonda turli kayfiyatni chaqirishini o'z tajribalarida isbotlaydi. Har bir rangning o'ziga yarasha alohida belgisi, xususiyati mavjud deb ta'kidlagan. Uning fikricha, xushkayfiyat uyg'otuvchi ranglar bu sariq va qizil. Bu ranglar insonni shodlantiruvchi, faollashtiruvchi hisoblanadi. Salbiy ranglarga esa, to'q ko'k, qora ranglarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu ranglar insonni tushkunlikka tushuruvchi, yomon xotiralarni uyg'otuvchi xususiyatga ega. Yashil esa neytral rang deb ta'kidlagan. Kundalik hayotda insonning kiyimida dominant rangga qarab, psixologlar unga ma'lum bir xarakteristika berishi mumkin. Yangi olib borilayotgan tajribalarda hattoki, avtomobil' rangi ham inson to'g'risida ma'lumotlar bera olishini aniqlashgan.

Psixolog V.S.Muxinaning tadqiqotlari bo'yicha yosh bolalar tiniq, shaffof yorqin ranglarni yoqtirar ekan. Bunga asosiy sabab, ular 3-8 yoshgacha juda faol va qiziquvchan bo'lishida deb ta'kidlagan. Bolalar chizgan rasmlar orqali aks etgan ranglarda buni kuzatishimiz mumkin, deydi Muxina. Agar bolaga yaxshi ko'rgan narsangni chiz va bo'ya deyilsa, u albatta uni yorqin va rang-barang tuslarda bo'yaydi, aksincha, yomon ko'rgan buyumlarni to'q ranglarda aks ettirishini kuzatishimiz

mumkinkinligini, alohida ta'kidlash joiz. G.Friling va K.Auer insonlarni rangga bo'lgan munosabatini ularning yoshi va jinsidagi tafovutlar bilan bog'lab isbotlab berishgan. Ulg'aygan sari inson to'qroq va iliq ranglarni, yoshlar esa sariq, qizil, yashil, ko'k va pushti ranglarni tanlaydi. L.N.Mironova esa, rang tanlashda nafaqat uning jinsi, yoshidagina emas, balki uning lavozimi, kasbiy faoliyati mehnatning qaysi turiga moyilligi, ya'ni jismoniy yoki aqliy ish bilan shug'ullanishi kabi omillarni ko'rsatadi. Ranglar insonning asab tizimini qo'zg'atuvchi yoki tormozlovchi, miya faoliyatini faollashtiruvchi va susaytiruvchi xususiyatga ega ekanligini o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Qizil rang ehtirosni uyg'otsa, moviy va yashil ranglar insonni tinchlantiradi deyishadi. Haqiqatdan ham shundaymikin? O'zimiz istagan kayfiyatni uyg'otish maqsadida xonamiz uchun mos rangni soatlab qidiramiz. Vrachlar xonasi tozalikka ishora qilinib oqqa, savdo yaxshi bo'lsin deb fastfud restoranlari qizil yoki sariqqa, ba'zi qamoqxona kameralari esa, bosimni kamaytirish maqsadida pushti rangga bo'yaladi.

Biz xonani qaysi rangga bo'yashni yaxshi bilamiz, deb o'ylaymiz. Chunki biz qizil rang insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi, moviy bo'lsa tinchlantiradi kabi fikrlarni ko'p eshitganmiz va bunga ishonib ham ulguramiz. Aslidachi, ular bizning kayfiyatimizga ta'sir o'tkazadimi?

AQSH, Shveysariya, Germaniya, Polsha, Avstriya va Buyuk Britaniyaning ba'zi turmalari pushti rangning biror bir tusiga bo'yalgan. Ilmiy tadqiqotlar natijalari ba'zida bu fikrlarni inkor qilmoqda. Bu savollar yuzasidan olimlar o'rtasida ilmiy muhokamalar ham kechmoqda. Qizil rang ko'k va yashil bilan taqqoslab o'rganilgan. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, insonlar kognitiv amallarni qizil nur ostida yashil va ko'k nurga qaraganda yaxshiroq bajarishdi. Boshqa olimlar bo'lsa, buning aksi haqida so'zlashadi. Gap shundaki, agar siz biror rang yorug'ligi bo'yicha avvaldan ma'lum bir tajribaga ega bo'lsangiz, yorug'likni doimgiday qabul qilasiz. Bu bizga maktab xotiralarini eslatib yuboradi. O'qituvchingiz xatolaringizni qizil bilan belgilagani uchun ham siz beixtiyor qizilni xavf-xatar rangi ekanligini his qilasiz. Bundan tashqari zaharli mevalarning ko'pchiligi qizil rangda. Moviy esa, ko'pincha xotirjam holatlar, masalan, dengiz yoki samo bilan bog'liq.

Albatta, hamisha istisno vaziyatlar topiladi. O'qituvchingiz "Bexato bajarilgan!", degan gapni ham qizil ruchkada yozadi yoki mazali malina qizil rangda, uni bemalol qo'rqmay iste'mol qilsa bo'ladi. Bir qancha munozarali tadqiqotlardan so'ng 2009 yili Britaniya Kolumbiyasi universiteti olimlari mazkur savollarga batamom oydinlik kiritishga kirishishdi. Ular tajriba qatnashchilarining kompyuter ekranlariga turli xil, ko'k, qizil va "neytral" ranglarni chiqarib, turlicha mashqlar bajarishni taklif qilishgan. Ektranda qizil rang bo'lganida ishtirokchilar xotira bilan bog'liq testlarni hamda matndan xato topishni, ya'ni detallarga e'tibor talab qiluvchi mashqlarni yaxshi uddalashgan. Biroq ektranda ko'k rang paydo bo'lgach, ular ijodiy mashqlarni yaxshiroq bajarishgan. Tajriba mualliflarining so'zlariga ko'ra, qizil rang ishtirokchilarni ehtiyotkor bo'lishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, ko'k rangda ular o'zlarini erkin his qilishgan. Tadqiqotchilar guruhi chiqarilgan natijalardan kundalik hayotda foydalanish to'g'risida ham o'ylab ko'rishdi. Devorlar xonadagilar bajarayotgan vazifasiga qarab har xil rangga bo'yalishi kerakmi? Masalan, dorining noxush ta'sirlarini o'rganayotgan guruh xonasi qizilga, yangi g'oyalar

qidirayotganlarniki ko'kka bo'yalsa? Hayotda buni amalga oshirish juda qiyin. Ofis yoki sinfda ma'lum muddat sizdan ijodiy fikrlash talab qilinadi, ammo shu bilan birga mayda detallardan ham e'tiborni qochirmaslik zarur.

Shveysariyadagi Bazel universitetining Oliver Genshov boshchiligidagi olimlar guruhi yana bir tajribani amalga oshirishdi. Ular ko'ngillilarga likopchada pechenye taklif qilishdi va uni mazasini aniqlaganlaricha istagancha yeyishlari mumkinligini aytishdi.

Xonaga qizil nur tushirilganda kamroq pechenye iste'mol qilindi. Ammo xuddi mana shu eksperiment Appalachi universiteti olimlari tomonidan o'tkazilganda natijalar aksini ko'rsatdi. Ishtirokchilar endi qizil nur ostida ko'proq pechenyeni yeyishdi.

Ko'rinib turibdiki, ranglar ta'sirini o'rganish o'ylaganimizdan ko'ra ancha murakkab ish. Yoki shunchaki ranglar biz kutganimizdek ta'sir kuchiga ega emas. Shunga qaramay, AQSH, Shveysariya, Germaniya, Polsha, Avstriya va Buyuk Britaniyaning ba'zi turmalari pushti rangning biror bir tusiga bo'yaladi. Shveysariyaning 20 foiz qamoqlarida va polisiya uchastkalarida hech bo'lmaganda bir dona pushti xona mavjud. Bu rangni "pushti puding" deb atash ham mumkin. Biroq uning o'z nomi bor — Beyker-Miller pushtisi. Bu nom mahbuslarga pushti rangning ta'sirini birinchi bo'lib o'rgangan AQSHning ikki ofiseri sharafiga qo'yilgan.

Mazkur farazni tekshirish maqsadida Genshov boshchiligidagi olimlar guruhi 2014 yili Shveysariyaning xavfsiz qamoqxonalardan biriga yo'l olishdi. Ular tadqiqot uchun 30 yil oldingisiga qaraganda ancha yaxshi tayyorgarlik ko'rishdi. Mahbuslar tasodifiy tartibda turlicha, pushti rangga bo'yalganlaridan tortib, kulrang devorli oq shiftli kameralarga joylashtirildi. Qamoqxona xizmatchilariga mahbuslar xulq-atvorini baholash uchun tajavuzkorlik shkalasidan qanday qilib foydalanish o'rgatildi. Natija pushti kameralar nazariyasiga ishonuvchilarni xursand qilgani yo'q. Chunki xona rangidan qat'i nazar uch kun o'tgach, mahbuslarning tajovuzkorlik darajasi ancha susaygan. Xullas, bu yerda rangning hech qanday ahamiyati yo'q.

Shunday qilib, rang inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Ammo bir rangda hamisha bir xil kayfiyat uyg'onadi, uning aniq bir ta'siri bor deyish ham juda mushkul. Balki kuni kelib bu savollarga aniq javob topilar. Hozircha rangning inson kayfiyatiga ta'siri ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, ranglar haqiqatdan ham har bir inson hayotining ob'yektiv bir bo'lagigina emas, balki ruhiyati, kayfiyati va hattoki sog'lig'iga ham o'z ta'sirini ko'rsata oladigan omil ekanligini anglaymiz. Shunday ekan, ranglar va ularning xususiyatlari masalasiga jiddiy qarash, har tomonlama tadqiq etish zarur. Chunki, ranglar haqida ma'lumotga ega bo'lish har qanday inson uchun kundalik hayotida shaxsiy buyumlar tanlash, yashash, o'qish yoki ish joylarini jihozlash, didni shakllantirish hamda mustaqil fikrlashida muhim o'rin egallaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, ranglar haqiqatdan ham har bir inson hayotining ob'yektiv bir bo'lagigina emas, balki ruhiyati, kayfiyati va hattoki sog'lig'iga ham o'z ta'sirini ko'rsata oladigan omil ekanligini anglaymiz. Shunday ekan, ranglar va ularning xususiyatlari masalasiga jiddiy qarash, har tomonlama tadqiq etish zarur. Chunki, ranglar haqida ma'lumotga ega bo'lish har qanday inson uchun kundalik hayotida shaxsiy buyumlar tanlash, yashash, o'qish yoki ish joylarini jihozlash, didni shakllantirish hamda mustaqil fikrlashida muhim o'rin egallaydi.

Ranglar psixologiyasi: rang va fe'l-atvor

Insonning sevimli rangi u haqda ko'p narsani bildirishi mumkin.

Qizil rang

Agar siz qizil rangni yoqtirsangiz, demak siz o'ziga ishongan va qaysar insonsiz, boshlagan har qanday ishni oxirigacha yetkazishga harakat qilasis. Shu bilan birga siz ehtirosga beriluvchan va qiziqqon shaxssiz – diqqat e'tiboringizni faqatgina bir narsaga qaratishga qiynalasiz. Siz xilma-xillikni yoqtirasiz, hayotingiz tinch va osuda kechsa, zerikishni boshlaysiz.

**Qora rang** Bu qarama-qarshiliklar rangi. Qora rang shaydolari hamisha jonbozlik ko'rsatishga tayyorlar (ishda ham, musobaqalarda ham, ishqiy munosabatlarda ham). Biroq bunday insonlar maqsadlariga erishishda qiynaladilar, chunki ularning qarashlari xolisona emas, ular faqatgina o'zlarini hamisha haq deb biladilar. Ular stabillikni yoqtiradilar, ammo shu bilan birga sarguzashtlarga ham tayyorlar – oqibati yomon bo'lmasa bo'lgani. Samimiyatni xush ko'radilar, kelishuv bo'yicha yashashni yoqtirmaydilar.

Oq rang

O'ziga ishongan va chiqishimli insonlarning rangi. Bunday insonlar o'zlarining g'oyalari uchun oxirigacha kurasha oladilar, o'zlariga ham, atrofdagilarga ham qattiqqo'l bo'ladilar. O'ylagan narsalari amalga oshmay qolsa, hech kimni aybdor qilmaydilar, taqdirdan ko'radilar.

**Kulrang** Kulrangni g'amgin va ko'rimsiz insonlar tanlaydilar degan gap noto'g'ri. Aslida bu rang ishqibozlari - mulohazalidirlar va yetti o'lchab bir kesadilar. Ular osudalikni yoqtiradilar va ertangi kunga umid bilan qaraydilar.

**Sariq** Bu quvonch rangi. Sariq rangni samimiy, ijodkor insonlar tanlaydilar, ular oqibati qanday bo'lishidan qat'iy nazar sinovlarga hamisha tayyorlar. Asosiysi vaqtni qiziqarli o'tkazadilar va bebaho tajribaga ega bo'ladilar. Tashvishlari haqida hech kimga og'iz ochmaydilar, azoblansalar yolg'iz o'zlari yengib o'tadilar.

**Moviy rang** Ushbu rang ishqibozlari kamtarin insonlar bo'lib, hayotdagi har qanday vaziyatga moslasha oladilar va undan g'olib sifatida chiqa oladilar. Ular kelishimli, ba'zan esa qat'iyasiz ham bo'lishlari mumkin. Bunday insonlar ko'p charchaydilar, shuning uchun tez-tez dam olib turishlari kerak.

**Yashil rang** Bu hayot va tabiat rangi. Bu rangni tanlagan insonlar qat'iyatlidirlar va jamiyatda o'z mavqelarini belgilab olishga intiladilar. Ular birovlarining ko'rsatmalarini yoqtirmaydilar va ularga amal qilmaydilar – o'z bilganlaridan qolmaydilar. Kundalik hayotdagi kelishmovchiliklarga ahamiyat bermaydilar, birovga tobe bo'lishni yoqtirmaydilar.

**Siyohrang** Bu rangni o'zlariga ishonchi bo'lmagan va atrofdagilardan najot qidirib yashovcjh insonlar tanlaydilar. Ular hamisha bulutlarda uchib yuradilar, yaxshi hayotni istaydilar, biroq buning uchun harakat qilmay, birovlardan yordam kutadilar.

**Korxonada xodimlarga izlanish mohiyatini yetkazish**

Korxonada xodimlarga to'g'ridan-to'g'ri izlanishni tadbiiq etish uning mohiyatini anglashni imkonini va natijadan kutilgan samaradorlikni 20 foizga pasayishiga olib kelishi mumkin. Belgilangan amaliy tadqiqot muddati davrida samaradorlik pasayishi hisobiga vaqtning yo'qotilishi innovasion izlanishdan ko'zlangan xulosani olishda xatoliklar yuzaga



kelishga sabab bo'lishi mumkin.

Buni mohiyatini xodimlarda his qilishini ta'minlash uchun rahbariyat tomonidan izlanish mohiyatini tushuntirishni va maqsadini o'z ichiga olgan dasturiy yo'riqnoma ishlab chiqish va xodimlarga tanishtirish lozim bo'ladi.

Yo'riqnomada izlanish maqsadi, xodimlarga qo'yilgan talab va uni bajarmaslik bo'yicha javobgarlik, rahbariyat nazorati talablari ko'rsatiladi.

#### **XULOSA.**

Inson psixologiyasida shu narsa tug'ma ravishda shakllanganki uni e'tiroz yetishning imkoni mavjud emas. Bu inson mening o'zidan katta va yoki yuqori turuvchi men oldida hamisha majburiyat, hurmat va zaruriyat tufayli osh egishidir. Ishlab chiqarish korxonalarida ham rahbar va ishchi xodimlar o'rtasida xuddi shu tizimni inkor etishning iloji mavjud emas. Xodim hamisha o'zidan yuqori turuvchi to'g'ridan-to'g'ri boshlig'ining bergan vazifa va topshirig'ini bajarishga moyil hisoblanadi. Rahbarning xodimga bergan topshirig'i to'g'ri va yoki noto'g'ri bo'lishidan qa'tiy nazar xodim ushbu topshiriqni bajaradi. Bunga uni ish yo'riqnoma va talablarini bilmaslik 20 foiz, rahbar bilan sa'lbiy munosabatga bormaslik va buning hisobiga ish o'rnini yo'qotishdan qo'rqish xissi 70 foizni tashkil etadi. Bunday xodimlarning noxush va yoki baxtsiz xodisani keltirib chiqarish e'htimoli ham shu darajada ortadi. Bunday xodimlarga berilgan topshiriqlarning asosiy qismi og'zaki bo'lib, xodim ish bo'yicha vazifani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo bo'yicha o'ylab ko'rmaydi. Faqat 10 foiz insonlarga ikki sababani cheklagan holda aqlan berilgan vazifaning to'g'ri va yoki noto'g'ri ekanligidan qa'tiy nazar rahbarga o'z munosabatini doimiy tushuntira oladigan shaxslar hisolanadi. Bu toifaning asosiysini ish tajriba va ko'nikmasi yuqori bo'lgan xodimlar tashkil etadi.

#### **FOYDALANILGANADABIYOTLAR:**

1. MEHNAT MUHOFAZASI MAXSUS KURSI. E.I. IBRAGIMOV, S. GAZINAZAROVA, O.R. YULDASHEV. Toshkent 2014.

2. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI, O.D.RAHIMOV, R.T.XO\_JAQULOV, O.T.HASANOVA, O\_.R.YO\_LDOSHEV. «Davr nashriyoti» Toshkent – 2013.

3. MEHNATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. Bakieva I.A. IQTISODIYOT.2019.

4. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH. Y.O. MANNONOV, K.G. MAVLONOV. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2015.

5.<https://odam.uz/Qiziqarli/ranglar-psixologiyasi-rang-va-fe-l-atvor>

6.<https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/04/incident/>